



## XORIJIY DAVLATLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O'QITILISHI

Sh.Kenjayev

*Xorazm viloyati pedagoglarni yangi  
metodikalarga o`rgatish milliy markazi  
“Amaliy fanlar va mактабдан ташқари  
та`lim metodikasi kafedrasi mudiri*

**Annotatsiya:** Ma'lumki o'qituvchilik kasbi o'ta ma'suliyatli kasb bo'lib, turli integratsion bilim va ko'nikmalarni talab etadi. Texnologiya fani o'qituvchisi kelajakda o'quvchilarga bilim berish bilan birga ularda ma'lum kasb-hunarga oid ko'nikmalarni shakllantiradi. Bunda berilgan buyumlarni tayyorlashda o'qituvchi yuqori malaka va kasbiy mahoratga ega bo'lmos'hish kerak. Ushbu natijaga erishish uchun bilim va ko'nikmalardan tashqari o'qituvchining o'z sinalgan uslubi, ta'lim va tarbiya orqali o'quvchilarga ta'sir o'tkaza olish qobiliyati bo'lishi lozim. Dars jarayonida o'quvchilarga bilim berish bilan birga ularda mehnat qilish ko'nikmalarini o'stirish va mehnat orqali tarbiyalash ko'nikmasiga ega bo'lishni o'quvchilarga muassasalarda shakllantirish lozimdir.

**Kalit so'zlar:** *kasb, integratsion bilim, texnologiya, fan, o'qituvchi, kasb-hunar, malaka, kasb, mahorat, ta'lim, tarbiya, dars jarayon, mehnat.*

Texnologiya fani darsi maktabdagи boshqa fanlar uchun umumiylididaktik prinsiplarni qo'llasada, uning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud. O'quvchilar bilish faoliyati bilan emas, balki yaratish faoliyati bilan shug'ullanadilar. Texnologiya fani predmetlari, qurollari, jarayonlari oddiy o'r ganish obyekti sifatida emas, balkio'quvchilar ishlarini faollashtiruvchi ko'rsatmalilik vositasi, didaktik material, ta'limning texnik vositasi sifatida xizmat qiladi. Texnologiya fani o'quv fani sifatida ana shu va boshqa xususiyatlarini o'rgatadi.

Texnologiya fanini o'r ganish materiallar, ularning xossalarni o'r ganishdan hamda ushbu materialarning xususiyatlaridan kelib chiqib ulardan turli buyumlar tayyorlashdan iborat bo'ladi. Ushbu jarayon o'qituvchilardan texnologik bilimlarni qo'llash, kreativ va texnik fikrlash orqali tayyor buyumlarning sifat darajasini tahlil etish va o'quvchilarga kasbiy bilimlarni singdirishdan iborat. O'quvchilarni yoshligidan mehnatga o'rgatish kelajak hayotlarida juda katta samara beradi. Bunda mehnat ko'nikmalarini bilan birga o'quvchilarda kreativlik, texnik bilimlar, kollektiv ijodkorlik kabi qobiliyatlarini ham shakllantirish zarur.

Og'zaki bayon qilish metodlarining turlari

Og'zaki mashqlardan ta'lim jarayonida keng foydalaniladi. Ular o'quvchilarning umumiylididaktik madaniyati, mantiqiy fikrlashi hamda bilish qobiliyatini rivojlantirish bilan bog'liqdir. Shuningdek, og'zaki mashqlarning nutq boyligini oshirish va xorijiy tillarni o'rganishdagi ahamiyati beqiyos.

Hikoya — o'qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, tasviriy vositalar yordamida obruzli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi. Metodning samarasi ko'p jihatdan o'qituvchining nuqt mahorati,

so'zlarni o'z o'rnida, ifodali bayon qilishi, shuningdek, o'quvchilarning yoshi, rivojlanish darajasini inobatga olgan holda yondashuviga bog'liq. Shu bois hikoya mazmuni o'quvchilarning mavjud bilimlariga tayanishi, ularni kengaytirishga xizmat qilishi zarur. Hikoyaning axborotlar bilan boyitilishi maqsadga muvofiqdir.

Suhbat — savol va javob shaklidagi dialogik ta'lif metodi bo`lib, u fanda qadimdan ma'lum, xatto undan o'z faoliyatida Suqrot ham mohirona foydalangan. Suhbat ta'lif jarayonida ko'p funksiyalar (aqliy fikrlash, hozirjavoblik, muloqot madaniyati va boshqa sifatlarni shakllantiradi) bajaradi, ammo asosiysi o'quvchida faollikni yuzaga keltiradi. Suhbat o'qituvchi fikriga mos harakat qilish, natijada yangi bilimlarni bosqichma-bosqich egallashga imkon beradi.

Tushuntirish o'quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilishdir. Bu metod hikoyaga nisbatan birmuncha keng qo'llaniladi. Undan odatda, nazariy materiallar hamda murakkab masalalarni o'rganishda foydalaniladi. Tushuntirish jarayonida o'quv materialining bir qadar qiyin unsurlari ko'zga tashlanadi va shu asosda materialning mohiyati ochib beriladi. Tushuntirish samarasi ko'p hollarda o'qituvchining ko'rgazmali vositalardan oqilona foydalanishiga bog'liq bo'ladi.

Ma'ruza — yirik hajmdagi o'quv materialini og'zaki bayon qilish metodi sanalib, uning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: qat'iy mantiqiy ketma-ketlik, uzatilayotgan axborotlarning ko'pligi, bilimlar bayonining tizimliligi. Maktab ma'ruzasi mazmunini murakkab tizimlar, hodisalar, obyektlar, jarayonlar, ularning sababli-oqibatli bog'lanishlari, qonun va qoidalar tashkil etadi. Shu bois ma'ruza maktab sharoitida yuqori sinflardagina qo'llaniladi. Chunki u butun dars jarayonini qamrab olishi mumkin. Ma'ruza metodi tushuntirish va suhbatning asta-sekin kengayib borishidan vujudga keladi va bir vaqtida o'quvchilarni qisqacha yozib olish (konspektlash)ga o'rgata boradi

#### Integratsiyalashgan ta'limgan o'ziga xos xususiyatlari

Intergratsiya» so'zi lotincha integratio-tiklash, to'ldirish, «integer» butun so'zidan kelib chiqqan. Integratsiya tushunchasi quyidagi ikki xil jarayon sifatida etiladi: biringidan, tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog'liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon; ikkinchidan, tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni. Genetik jihatdan integratsiya-uzviylik, predmetlararo aloqadorlik, o'zaro aloqadorlik va nihoyat o'zaro bir-birini to'ldiruvchi, kengaytiruvchi hamda chuqurlashtiruvchi, o'quv predmetlari mazmunini eng kamida ta'lif standartlari darajasida sintezlab, mantiqan tugallangan mazmun shakli va oliy darajasidir. Chunki predmetlararo aloqadorlikning har qaysi quyi darjasini, o'rganilayotgan o'quv predmetlari doirasida ma'lum didaktik birliklar orasida o'rnatilib, ularni o'rganish mazmunini va muddatlarini muvofiqlashtirishni ko'zda tutadi, bundan farqli o'laroq integrativ aloqadorlik asosida tashkil etilgan o'quv predmeti yoki integratsiyalab o'rganilayotgan predmet, hodisa yoki jarayonlarni yaxlit tizim shaklida har tomonlama aloqadorlik va munosabatlar nuqtai nazaridan talqin etishni talab etadi

Boshlang'ich sinf mehnat darslarida integratsiyalashgan ta'limgan foydalanishning metodik xususiyatlari

Integtsiya atamasi, tadqiqodchilarning fikrlari

Integratsiya (lot. integratio — tiklash, to‘ldirish, integer — butun so‘zi-dan) — 1) sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o‘zaro bog‘liqlik holatini hamda shun-day holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha; 2) fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro aloqa jarayoni; differensiatsiya bilan birga kechadi; 3) 2 va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o‘zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish

Texnologiya va matematika, texnologiya va adabiyot, texnologiya va tarix

Texnologiya va jismoniy tarbiya, texnologiya va rasm, texnologiya va tabiat

Tarbiya nazariyasi

Tarbiya nazariyasi-pedagogika fanining bir qismi bo‘lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, usuli va tashkil e’tish masalalarini o’rganadi. Tarbiya nazariyasi markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagoglarining tarbiya borasida boy tajribalariga tayanadi. U o‘z qoidalarini asoslash uchun falsafa, e”tika, e’tsetika, fiziologiya, psixologiya, fanlaridan foydalanadi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning tashqi bilimlari: pedagogikaning umumiy asoslari, ta’lim nazariyasi, maktabshunoslik bilan u’zviy bog’langandir. Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g’oyaviy, ahloqiy, irodaviy e’tsetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy rivojlanadi. Bola o’sgan sari bu faoliyatlar takomillashadi, mutsaxkamlashadi

Tarbiya qoidalari

Tarbiya qoidalari pedagogik ta’lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil e’tish maqsadida foydalanaladigan boshlang’ich holat, rahbarlik asosidir. Ta’lim qoidalari o’qituvchi, tarbiyachilarga yo’l-yo’riq ko’rsatuvchi qoidalari hisoblanadi, yangi kishini shakllantirish vazifalari bilan belgilanadi. Tarbiya qoidalari sharq va markaziy Osiyo faylasuf donishmandlarining fikrlari va milliy pedagogikada e’rishgan yutuqlarga asoslanadi. Tarbiyaning mazmuni, tashkil e’tishi, usullari va ularga qo’yiladigan talablar shu qoidalarda o’z ifodasini topadi. Tarbiya qoidalari quyidagilarni kiritish mumkin:- tarbiyaning ma’lum maqsadga qaratilganligi-tarbiyaning insonparvarligi-tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog‘liqligi-tarbiyada milliy madaniy va umuminsoniy qadriyatlarning ustivorligi-o’qituvchining yoshini va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish-izchillik, tizimchilik, o’zluksizligi

Texnologiya fani bizga talim tizimining yangi sohalariga qadam qo’yishga bo`lgan imkoniyatlar eshigini ochadi. Bunga yana yaqqol misol tariqasida mehnat talimi fani texnologiya faniga o’zgartirilganligidir. Buning asosiy sababi mehnat so’zi keng ma’no va tushunchaga ega bo‘lib hozirgi texnika va texnologiyalar rivojlangan zamonamizga to’g’ri kelmaydi. Texnologiya ta’limi jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion infratuzilmasini shakllantirish lozim. Lekin bu sohada yuqori darajaga erishish uchun eng avvalo moddiy-texnik baza zamon talablariga javob berishi lozim. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

-umumiy o’rta ta’lim maktablarida o’qitiladigan amaldagi texnologiya fani mazmuni, mustaqil hayotda qo’llash imkoniyati bo’lgan texnologik savodxonlikni, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish uchun yetarli emas;

-texnologiya fanini o'qitishda metapredmet kompetensiyalar va fanlararo bog'liqlikning kamligi;

-texnologiya fani me'yoriy hujjatlarida baholash mezonlarining faqat bitiruvchi kompetensiyasi uchun ishlanganligi va darslik, ishchi daftari va o,,qituvchi kitoblari, multimedia ilovalari, didaktik materiallarning yetishmasligi;

-texnologiya fani mazmuniga mexatronika, robototexnika, elektrotexnika, avtomatika, arduino kabi O'zbekiston iqtisodiyoti rivoji uchun zarur bo'ladigan elementlarning kiritilmaganligi bo'lajak maktab bitiruvchisi va mutaxassislarning kasbiy sifatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

-o'quvchilarda ta'lim olishga kuchli motivatsiyani shakllantirish uchun o'quvchilarda zamonaviy texnika, mexatronika, robototexnika, elektrotexnika, avtomatika sohasidagi taktil kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan jihoz va uskunalarining yetishmasligi;

-texnologiya fani moddiy-texnika bazasini eskirganligi, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlanmaganligi hamda byudjetdan mablag' bilan ta'minlash bo'yicha yetarli choralar ko'rish yuzasidan takliflar ishlab chiqilmaganli;

Texnologiyaning jadal rivojlanishining birinchi davrida bunday bo'linish kuzatilmadi va ilmiy adabiyotlarda asosan ixtirochilik faoliyati haqida so'z yuritildi. Hozirgi vaqtida kashfiyat, ixtiro va ratsionalizatorlik taklifining ilmiy va amaliy bo'linmasi mavjud bo'lib, ular nafaqat texnik ob'ektlarga nisbatan amalga oshiriladi. Shunday qilib, kashfiyat deganda, ilgari noma'lum bo'lgan ob'ektiv mavjud bo'lgan mulk yoki hodisani o'rnatish tushuniladi. Ishlab chiqarish, madaniyat va boshqalar uchun ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan muammoning yangi echimi deb nomlangan ixtiro.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7-февралдаги ПФ-4947 - сонли «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017 йил, 6-сон, 70-модда.

2. Махбуба Аслановна Халмухамедова «НАҚШБАНДИЯ ТАРИҚАТИДА КАСБ-ХУНАР ЭГАЛЛАШГА ДАЪВАТ.» Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal

3. Технология таълим мини ривожлантириш стратегиялари модули бўйича ЎҚУВУСЛУБИЙ МАЖМУА. Тошкент-2021

4. A.Abduqodirov, R. Ishmuhammedov. “Ta“limda innovatsion texnologiyalar” Т.: 2008. – 128 b.